
“Kamalak” sardorlari bilan uchrashuv

Farg‘ona shahridagi Tadbirkorlar markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha Davlat maslahatchisi, YOshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi Qahramon Quronboevning shahar ta‘lim muassasalari tizimidagi “Kamalak” bolalar tashkiloti sardorlari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Kengash raisi yoshlarning jismonan va intellektual, ma‘naviy rivojlanishi uchun qulay va eng yaxshi sharoitlarni yaratish, kuch va g‘ayratlarini Vatan rivoji yo‘lida sarf etishlarini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyati haqida so‘z yuritdi.

Tadbir ishtirokchilari tomonidan iqtidorli bolalarning ijodiy ishlarini yoritib borish uchun gazeta va jurnallar tashkil etish, yozgi oromgohlar, Samarqand, Buxoro singari qadimiy shaharlarga ekskursiyalar uyushtirish, yoshlar teatr studiyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, sardorlar bellashuvini o‘tkazish, kam ta‘minlangan oila farzandlarini bepul sport mashg‘ulotlariga jalb qilish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Ochiq muloqotda ta‘lim dargohlaridagi ayrim muammolar yuzasidan ham o‘quvchilarning savollari tinglandi. Jumladan, maktabdagi sharoitlar, kutubxona zallarini kengaytirish, mavjud kitob bazasini yangilash, sport maydonchalarining talabga javob bermasligi kabi kamchiliklar aytili. Kengash raisi yangi kitoblar etkazib berilishi, bu borada zarur tashkiliy ishlar olib borilayotganligini ta‘kidladi. Ta‘lim dargohlaridagi ittifoqning boshlang‘ich tashkilot etakchilariga yoshlar o‘rtasida sog‘lom muhit barqarorligini ta‘minlash, ularning yashirin iqtidorini yuzaga chiqarish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan topshiriq va vazifalar yuklatildi.

Kamola POLVONOVA.

Jahongir MIRZAMATOV olgan surat.

2018-02-07 16:17:35